

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AYRIM HUDUDLARING RANG NOMLARI BILAN ATALISHNING LINGVISTIK AHAMIYATI

Ismatova Nodiraxon Mahmudovna

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: nodiraismatova1981@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10408600>

ANNOTATSIYA: Tilshunoslik va toponimika sohalarini bir biriga chambarchas bog'liq ekanligini hech ikkilanmay aytishimiz mumkin. Har bir narsa predmetning o'z xususiyatidan kelib chiqib unga nom beriladi. Shu bilan birga joy nomlarga ham. Ushbu maqolada O'zbekiston xududidagi ayrim joy nomlarining rang nomlari bilan atalishi va ularning lingvistik tahlili haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada Qiziltepa va Oqtepa nomlariga ham alohida e'tibor qaratilgan

KALIT SO'ZLAR: toponimika, rang toponimlari, qiziltepa, oqtepa, qizilo'rda, lingvistika.

Bugungi kunga kelib, ilmiy tadqiqot ishlari ko'pincha bir necha fanlar manfaatlari tutashgan joyda samarali rivojlanmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida geografik nomlarning lingvistik jihatdan o'rganilishini aytishimiz joizdir. Geografik nomlarni o'rganuvchi toponimika - ana shunday fanlar sirasiga kiradi. Toponimika fan sifatida, so'nggi bir asr davomida ildam sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan fanlardan biridir. Chunki fanning o'rganish ob'ekti bo'gan geografik nom - milliy va ma'naviy qadriyatlarini ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ularni o'rganish doimo dolzarb masala hisoblangan. Xususan, jamiyat, ilm-fanning tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda, geografik ob'yektlarning nomlariga qo'yiladigan talablar ham takomillashib, o'zgarib bormoqda. Natijada, geografik nomlarga bo'lgan qiziqish, vaqt o'tishi bilan kamaygan emas, aksincha sezilarli darajada ko'paydi. Ma'lumki, geografik nomlar zamonaviy sivilizatsiyaning ajralmas qismi, shu sababdan insoniyatni, jamiyatni asrlar davomida shakllangan o'ziga xos toponimik muhimsiz tasavvur qilish qiyin. Geografik nomlarni tanlash yoki ishlatishga leksik birliklardan keng foydalaniladi, shu sababdan ham toponimikaning lingvistik xususiyatlarini o'rganish nafaqat toponimiya balki tilshunoslik sohalarining ham dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Toponimiya doir ilmiy tadqiqotlar lisoniy, tarixiy, geografik tavsifdan ilmiy izohli tavsif hamda ilmiy etimologik tasnifga qarab borganligini shu sohaga oid e'lon qilinayotgan ilmiy adabiyotlar, shuningdek, amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning mazmun va mohiyatidan, aniqrog'i, ularning ilmiy nuqtayi nazardan yangilanib, takomillashib borayotganligidan bilish mumkin. Ularning ba'zi birlarida toponimlarning etimologik tahliliga birmuncha to'xtalingani, ularning etimologik tadqiqi usullariga e'tibor qaratilmaganligi sababli, joy nomlarining etimologik tahlili dalillarining ozligi tufayli mukammal darajada deb bo'lmaydi. Etimologiya va etimologik tahlil turlari tadqiqotlari masalasi o'zbek tilshunosligida olimlar A.Fulomov, F.Abdullayev, Sh.Rahmatullayev, E.Fozilov, A.Ishayev, B.Bafoyev kabilarning tadqiqotlarida u yoki bu darajada qayd etilgan. B.O'rinboyev, E.Begmatov va S.Qorayev, T.Enazarovlar toponimlarning tadqiqida ham "etimologik tahlil" zarurligini qayd etishgan, tadqiqning nazariy asoslari to'g'risida ba'zi bir fikrlarni bildirib o'tishgan.

Toponimlar olami juda xilma-xil va qiziqarli. Inson paydo bo'lganidan buyon behisob va murakkab nomlar dunyosida yashaydi. Kurrai zaminda har xil davr va tilga mansub millionlab geografik nomlarning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin. Ularni har kuni ijtimoiy tarmoqlarda ko'ramiz, radiodan eshitamiz, gazetada o'qiymiz, teleekranlarda va kompyuter monitorlarida

ko'ramiz. Xususan, atlas va geografik kartalami nomlarsiz tasavvur qilish qiyin. Hayotda sodir bo'lgan yoki bo'layotgan ko'plab voqea-hodisalarni geografik nomlar orqali anglab olish mumkin. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, nomning ma'nosi ob'yektga nom berilayotgan vaqtda muhim, keyinchalik u nazardan bir oz chetda qoladi. Binobarin, ko'pincha bizga yaxshi tanish bo'lgan geografik nomlarni ham qanday ma'noga ega ekanligini bilmaymiz, faqat zarurat paydo bo'lganda u haqda o'ylash kerak bo'ladi. Umuman, inson uning bevosita atrofida sodir bo'layotgan voqea hodisalarga munosabat bildirmasdan qolmaydi. Shu sababdan, kishilar nazariga tushgan dunyodagi hamma narsani nomi bor, demak inson nom bermasdan yashay olmaydi. Odamlar bir geografik ob'yektga, ikkinchisidan farq qilish uchun turli xil nomlarni o'ylab chiqargan. Boshqacha aytganda, jamiyat hayotida sodir bo'lgan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muhrlanib qolgan. Yoki mana shu hudud asos topishiga rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk insonlarning nomlari shu joyning nomi sifatida saqlanib qoladi. Ba'zan esa, joy nomlari shu hududda yashovchi insonlar qabilasi nomiga (Arab qishlog'i, Ingliz qishlog'i) ularning qiladigan mashg'ulotlari nomiga (Chiroqchi, Po'stindo'z); yoki yuqorida ham ta'kidlab o'tilganidek, shu yurtning mard o'g'lonlari nomiga (Navoiy viloyati, Mang'it qishlog'i) qo'yilishi mumkin. Bulardan tashqari, hududlarda ayrim joylarning rang nomlari bilan bog'liqligini ham ko'ramiz. Misol tariqasida Oqtepa, Qiziltepa, Qizilo'rda, Ko'ksuv, Qorasuv va boshqa ko'plab nomlarning rang nomlari bilan birgalikda joy nomini ifoda etayotganini ko'rishimiz mumkin.

Oqtepa — Anov madaniyatiga oid makonlardan biri bo'lib uning tarixi miloddan avvalgi 5-ming yillik oxiri — 3-ming yillikning 2-yarmiga borib taqaladi. Ashxobod shahridan 3,6 km jan.-g'arbda joylashgan. Oqtepa dastlab bir urug'ning, keyinchalik yirik oila jamoasining qarorgohi va kichik oilaning qo'rg'oni bo'lgan. Keyingi davrlarga oid xom g'ishtdan ishlangan uy-joylar (asosan 4 xonali), xo'jalik buyumlari uchun kichik hujralar hamda oila sajdagohi va boshqalar topilgan. Oqtepadan yashagan kishilar dehqonchilik, uzumchilik, chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Ular kundalik hayotlarida asosan jez qurollar va sirli sopol idishlardan foydalanganlar.

Qiziltepa – qizil – “qon rangidagi, “alvon”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu sifat asli “qizil tus ol-” manosi anglatgan qiz fe'lidan -(ы)l qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik ы unililarning qattqlik belgisi yo'qolgan: qыз- +ыл= qызыл-qizil. Tepa – “do'ng joy”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli töpa, töpu tarzida talaffuz qilingan (DS, 580); o'zbek tilida o unlisi e unlisiga almashgan; töpa – tepa. Bu so'z oxirida a, o, qismi asli leksema yasovchi qo'shimcha, lekin manbalarda töp – fe'li o'z aksini topmagan. [Rahmatullayev, 2000: 331]. Qiziltepa Navoiy viloyatidagi tuman, qishloq. Qizil rangli, qizg'ish tuproq (qum)li tepalik yonidagi qishloq. [Nafasov, 2007: 49]. Qiziltepa atamasi toponim bo'lib, hozirgi kunda ham joylarga nom sifatida ishlatilmoqda: qizil + tepa > qiziltepa > Qiziltepa sifat + ot birikuvidan qo'shma asosli toponim yasalgan. Demak, etimologik tahlil masalasida shuni alohida ta'kidlash kerakki, joy nomlari etimologiyasiga aniqlik kiritishda toponimik terminlarining ahamiyatiga e'tibor qaratish lozim bo'ladiki, bunda so'z hamda o'rganiladigan toponimlar etimologik tahlilining bir-biridan farqlanib qo'llanilishi, amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning takomillashuviga imkoniyat yaratib beradi. Shuningdek, toponimlar yuzasidan amalga oshirilgan etimologik tahlillar ilmiy toponimik tahlilning mukammal ko'rinishlari sifatida namoyon bo'ladi. Toponimlarning etimologik tahlili mamlakatimiz toponimiyasining ham farqli, ham o'xshash jihatlari, ularning unutilgan va

yashirin ma'nolari borligini ham anglatishi bilan bir qatorda, ma'lum bir ma'noda xalqlar do'stligining o'ziga xos jihatlarini, urug'-qabila, xalq etnonimlarining ommaviy hamda keng tarqalishini, tadqiq etilgan oykonimlarning tarixiy taraqqiyotda muhim rol o'ynashini ham anglatadi.

References:

1. Qorayev S. Yer tilining kaliti. Qisqacha lug.,at. –Toshkent., 2009. –B.59.
2. T.Enazarov va boshqalar. O,,zbekiston joy nomlarining etimologik lug,,ati toponimlar tilsimi. -Toshkent: Nodirabegim. 2019. – B.93-94.
3. Rahmatullayev Sh. O,,zbek tilining etimologik lug,,ati. – Toshkent: Unversitet. 2009. –274 b. 14. Рашид-ид-дин, Сборники летописей, –Ташкент, 1960. –С 176.
4. Ismatova, N. M. (2022). TOPONYMS EXPRESSED IN ENGLISH WITH A COMPOUND NOUN WITH A COLOR COMPONENT. In Современные проблемы филологии и методики преподавания языков: вопросы теории и практики (pp. 101-104).
5. Исмадова, Н. М. (2017). Побудительные предложения в английском и в узбекском языках. Молодой ученый, (22), 472-473.
6. Попова, Е. И. (2021). Контекстные основания транспозиции временных форм русского глагола. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 2(5), 150-155., -B59.